

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**N.A. Abduvaliyeva**

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism) .....	654
<b>A.A. Nishonov</b>	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi .....	664
<b>A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov</b>	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda .....	673
<b>A.A. Nishonov</b>	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi .....	677
<b>R.X. Akbarov</b>	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	681
<b>R.X. Akbarov</b>	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki .....	685
<b>S.V. Yo'ldoshev</b>	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari .....	691
<b>A.M. Maximov</b>	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri .....	695
<b>A.M. Maximov</b>	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda? .....	698

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness .....	701
--	-----

**H.K. Sabirov**

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова .....	706
--	-----

**A.P. Kosimov**

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры .....	710
--	-----

**H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov**

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari .....	715
--	-----

**H.M. Karimova**

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе .....	718
--	-----

**Y.I. Nishanov**

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni .....	722
--	-----

**I.N. Doronina**

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе» .....	726
--	-----

**Z.F. Gizadaulin**

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике .....	729
---	-----

**X. Sharifiddinov**

Zamon qiyofalangan tarixiy roman .....	732
--	-----

**E.Ibragimova, N.Sharafutdinova**

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar .....	735
---	-----

**G.V. Abdullayeva**

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi .....	738
---	-----

**S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova**

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari .....	745
--	-----

**X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova**

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi .....	749
---	-----

**X.J. Jamolova**

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari .....	752
---	-----

**M.M. Xamidov**

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir .....	755
---	-----

**R.M. Umurzakov**

Bola obrazining nazariy muammolari .....	761
--	-----

**J.B. Sayidolimov**

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar .....	765
--	-----



## TEONIMIK TUSHUNCHA IFODALOVCHI MIFOLOGIK OBRAZLAR

## МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ТЕОНИМИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ

## MYTHOLOGICAL IMAGES REPRESENTING THEONYMIC CONCEPTS

E.Ibragimova<sup>1</sup><sup>1</sup>F.f.n., dotsentN.Sharafutdinova<sup>2</sup><sup>2</sup>o'qituvchi*Annotatsiya*

*Ma'lumki, Yaratguvchi go'zal, u makonda lomakon. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyot namunalarida U turli go'zal qiyofalarda vasf etiladi. Maqolada go'zal mifologik obraz – pari obrazining Yaratguvchi tushunchasini ifodalab kelishi haqida gap boradi.*

*Аннотация*

Как известно, Творец (бог) прекрасен. В народном творчестве и классической литературе он характеризуется и описывается разнообразием красивой внешности. В статье рассматривается прекрасный мифологический образ пери где дает понятие создателя.

*Abstract*

*As you know, the Creator is beautiful, he is a lomacon in the place. In folk art and classical literature, he is characterized by a variety of beautiful appearances. The article discusses the concept of creator of a beautiful mythological image — peri.*

**Kalit so'zlar:** Tangri, Umay, figural teonim, pari, parivash, ayol, go'zallik.**Ключевые слова:** тенери, прородительница Умай, теоним, пери, женщина, красота**Key words:** God, Umay, figure theonim, pari, parivash, woman, beauty.**KIRISH**

Ma'lumki, o'zbek tilida jins ifodalovchi grammatik vositalar yo'q. Biroq qadimgi turkiy bitiklarda Tangri, antropomorf suratda qiyofalantrilmagan holda, yuksakklikka ishorat belgisi hamda doimiy yo'ldoshi tarzida birga qo'llanadigan xoqon epiteti bilan erkak jinsiga, Umay nomi bilan ayol jinsiga kiritiladi. O'xshatishlarda xoqon va xotin so'zları qo'llanadi: ko'kka monand xoqon ota, Umaya monand xotin ona. Lekin figural teonimlar ayolga nisbat beriladigan so'zlar orqali, shu so'zlar ma'nolari asosida yaratiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Berilgan mavzuda, ya'ni mifologiya va diniy rivoyatlar haqida, shuningdek ularda uchraydigan mifonom hamda teonimlar, ularning qo'llanish darajalari borasida fikr yuritish mobaynida qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, metodlardan foydalanilgan. Yaratguvchi ma'nosida keluvchi pari so'zining Yaratguvchi ma'nosida qo'llanib kelingan boshqa teonim so'zlar bilan qiyoslab o'rganilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ayol esa barcha xalqlar tasavvurida qutbiy qarama-qarshilikda tasvirlanadi. Jumladan, hind miflarida rivoyat qilinishicha, Tvashtri (yaratuvchi iloh) ayolni yaratganda, unga quyidagi sifatlarni bergen holda bunyod etadi: oy to'linligini, yoyilib o'sadigan o'simliklar nozikligini, pechak gul murtchalarining tirishqoqligi va maysalarning nozik jilvalarini, nihol qayishqoqligi va gul malohatini, yaproqlar yengilligi va fil xartumi shaklini, ohu nigohi va asalarilar galasining birdamligini, quyosh nurlarining xushchaqchaq quvonchi, bulutlar ko'z yoshi va shamol o'zgaruvchanligini, quyon

hurkakligi va tovusning o'ziga bino qo'yishini, to'ti ko'ksining yumshoqligi va olmos qattiqligini, asal shirinligi va yo'lbars shiddatini, olov otashi va qor sovug'ini, jiblajibon sergapligi va kaptar kukulashini, turna hiyonatkorligi va yovvoyi o'rdak sadoqatini olib va bularning hammasini aralashtirib, ayolni yaratgan. Bu sifatlar tasvirida hind xalqiga xos milliylik juda aniq ifodalangan. Fil xartumi va tovus mag'rurligi ham bu tasvirdan o'ren olishida hind milliy estetik tabiatи ham aks etgan. Umuman, jahon xalqlari miflari berilgan ta'riflar, chizilgan tasvirlar zamirida qadimgilarning o'ziga xos real baholari, falsafiy qarashlari, ruhiy-ma'naviy hamda badiiy-estetik baholari yotadi. Bir qarashda u ona, rizq beruvchi, homiy, barcha ezguliklarni o'zida jamlagan ezgulik majmuidan iborat go'zal deb, boshqa bir qarashlarda cheksizlik, qochib qutulib bo'lmash qudrat, dovul qushi, ya'ni ayol boshli yirtqich qush qiyofasidagi dovul ilohasi, alvasti sifat yovuz ruh.

O'zbek xalq og'zaki ijodida Yunus va Misqol personajlari nomiga pari epiteti qo'shib qo'llanadi. Bu bilan uning go'zalligi ta'kidlanadi. Go'ro'g'libek "tushida biri oy bo'lsa, biri kun; biri gul bo'lsa, biri g'uncha; biri asal bo'lsa, biri shakar – osmon bilan yerning oralig'ida Yunus pari bilan Misqol parini" ko'radi. Bu tushini aytganda, "bir necha joydan timsol keltirib, bir so'z" deydi. Bu so'zda parilarga quyidagi epitetlar nisbat beriladi:

Biri emish bu jahonning quyoshi,  
Boz biri qamarday aning tengdoshi ...  
Biri yoqut, bir gavhar ko'rindi.  
Birining tushibdir sochi beliga,  
Biri rayhon tutib kelmish qo'liga.  
Olov yoqar boqib odam diliqa,  
Biri shamsu bir qamar ko'rindi.

Go'zallikni yanada go'zallashtiruvchi, kuchaytiruvchi, bo'rttiruvchi, ta'kidlovchi bu epitetlarga hulkar, dilbar sifatlari ham qo'shiladi. Shuningdek, "biri jodu, biri ayyor" ekanligi ham qayd etiladi.

Mumtoz she'riyatda Pari "pari", "mahbuba, go'zal, yor" ma'nolari bilan Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun qo'llanadi.

Kel bizga vafo birla, ey pari,  
Bu telbani furqatdin qil bari.  
Ey pari, men sari guzar ayla,  
Kir buzuq ko'ngluma, maqrar ayla.

Munis

(Ey pari, men tomon kelib, buzuq ko'nglumga kir, uni makon ayla)

Ma'lumki, Yaratguvchini real ko'rish imkonsiz, U makonda lomakon, ideal, nomoddiy qudrat. Bu xoslik orqali parilarga ham nisbat beriladi, ular ham ko'rinish berishdan uzoq bo'lishga harakat qiladilar, xilvatlarda makon tutadilar. Harakat-faoliyatları kunduzlari emas, balki tunda kechadi. Bu jihat Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun bir asos sifatida xizmat qiladi. Quyidagi baytda u ko'zdan yiroq, pinhon, ayni damning o'zida pinhon ham emas, aksincha tan – jismning o'zida ekanligi bayon etilgan:

Pariysen, yo'qsa nechuk ko'zlarimdin bo'yla pinhonsen,

Munis

Pariy demak xatodur, balki jismim aro jonsen.

Quyidagi baytda esa ko'zga ko'rinishi iltijo qilinadi:

Ey pari, ko'nglumnikim qilding nishiman yoshurun,

Munis

Istasang majnunlug'imni, ko'zima gohi ko'ru

## XULOSA

Demak, Pari lug'aviy birlik sifatida go'zal, shuningdek, ko'zga ko'rinish va ko'rinaslik ma'nolari asosida (ya'ni nominal ma'nolari asosida) figural ma'noda qo'llanadi, shu asos ma'nolarga ko'ra Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. Тўрт томлик. Биринчи том. – Тошкент: "Фан", 1983.
- Женщина в мифах и легендах. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий. 1992.
- Неру Дж. Открытие Индии. М.: изд.политической литературы. 1989.
- Шарафутдинова Н. The words god and blue (ko'k) are theonyms. Thematic journal of Education. 2022-yil. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6467332>.
- Шарафутдинова Н. Undalma teonimlar tavsif sifatida. Analytical Journal of Education and Development. -11-116, 2023-yil. ISSN: 2181-2624.
- Шарафутдинова Н. Гўзаллик тушунчасини ифодаловчи сўзларнинг теонимик маънода юлланиши. «Филологиянинг долзарб масалалари». -106-107, 2022-yil.

ADABIYOTSHUNOSLIK

7. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.
8. Ko'k so'zining teonimik ma'nosi. Sharafutdinova N. FarDU xabarlari. 2022, 6-son.
9. Sharafutdinov Khursanbay. Gafur Pulatov: The Cry Of Herirud, The American Journal of Social Science and Education Innovations, June 29, 2021 | Pages: 149-157).
10. Шарафутдинова Н. Абдулла Ориповнинг "Жаннатга йўл" достони қоғия системасида диниймифологик лексика. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АҲБОРОТНОМАСИ. -291-294, 2021-yil.